

Pomidorning O'zbekistondagi navlari.

Shomurodov Shohzod Zokirovich

shahzodshomurodov240@gmail.com

Parmonov Sodiq Xolboyevich

sodiqbekparmonov@gmail.com

Mahmudov Yahyo Baxtiyorovich

yahyomaxmudov329@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innavatsion rivojlanish instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz pamidor o'simligining O'zbekistonda mavsumiy navlarini ularning yetishtirish va vegetatsiya davri haqida ma'lumotlar berib o'tamiz. Pamidor nafaqat mazali sabzavotli taomlarni sevuvchilar uchun, balki sog'lom ovqatlanish tarafдорлари uchun ham eng yaxshi tanlovdır, chunki bu madaniyatda immunitetni oshiruvchi va hazm qilishni normallashtiradigan moddalar mavjud. Bundan tashqari, karamni muntazam iste'mol qilish saraton ehtimolini kamaytiradi.

Kalit so'zlari: shtamsiz, kartoshkasimon, Amerikaning Ekvador va Peru qismi, gultojibargli.

Pomidor – ituzumdoshlar oilasiga mansub o'simlik. Vatani Janubiy Amerikaning Ekvador va Peru qismi. O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko'p ekiladi va jami sabzavot yetishtiriladigan maydonlarning 40% dan ortig'ini egallaydi. Sabzavot ekinlari, jumladan pomidor yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda respublikamizda **200 ming hektardan** ortiq maydonga sabzavot ekinlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shundan **45,8 foiziga** pomidor ekini ekilib, o'rtacha hosildorlik hektariga **24 tonnani** tashkil etmoqda. Shuningdek, issiqxona sharoitida yetishtirilayotgan pomidorlar eksport qilinayotgan agromahsulotlar ichida yetakchi.

Biologik xususiyati

Pomidorning ildiz tizimi nihoyatda tarmoqlangan bo'lib, tuproqning chuqur (150 santimetrgacha) qatlamlariga kirib boradi va eniga 1,5-2,5 metr diametr gacha o'sishi mumkin. Namlik yetarli bo'lganda poyaning barcha qismlaridan ildiz yengil paydo bo'ladi, shuning uchun pomidorni nafaqat urug'i bilan balki vegetativ usulda ham ko'paytirsa bo'ladi. Pomidorning poyasi o'tsimon, tik yoki yotib o'sadi, kuchli yoki kuchsiz shoxlanuvchan bo'lib, poya turiga qarab 30 santimetrdan 2-3 metrgacha o'sadi.

Poyasini va barglarini tuzilishiga qarab pomidor 3 xilga bo'linadi: shtambli — poyasi yo'g'on, kam shoxlanuvchan, hatto mevalari bilan ham tik turuvchi; shtamsiz — poyasi ingichka, kuchli shoxnaluvchan, mevasi

og‘irligi ta’sirida yotib qoladigan; kartoshkasimon — yirik bargli. Shuningdek pomidor poyasi determinant (asosiy poya va yon shoxlari mo‘tadil o‘sib, to‘pgul hosil qilish bilan tugaydi) va indeterminant (asosiy poya kuchli o‘sishi bilan farqlanadi, yon shoxlari olib turilganda 2-3 metrgacha o‘sishi mumkin) turlarga bo‘linadi. Determinant pomidor navlari ochiq dalaga ekilsa, indeterminant navlar asosan issiqxonalarda yetishtiriladi.

Gullari ikki jinsli, mayda, sariq rangda, odatda 5-7 ta gultojibargli bo‘ladi. Changchilari 5-6 ta, konussimon shaklda joylashgan. Gulinig urug‘chisi ko‘pchilik navlarda changchilardan iborat konusning ichida joylashadi, bu esa pomidor ekinini 95 % hollarda o‘zidan changlanuvchi bo‘lishini taqozo etadi. Ayrim navlarda yoki noqulay ob-havo sharoitlarida (issiq harorat) urug‘chi tumshug‘i changchilardan tepparoqda joylashadi, bunda pomidor gullari chetdan hasharotlar yoki shamol yordamoda changlanishi mumkin.

Mevasi ikki, uch va ko‘p kamerali, sersuv, rezavor. Mevalarining og‘irligi 50 dan 1000 grammgacha; rangi qizil, pushti, sariq, binafsha, oq va hatto qora bo‘lishi mumkin; shakli yumaloq, yumaloq-yassi, noksimon, olxo‘risimon bo‘lishi mumkin.

Urug‘lari kichkina, yassi, uchi o‘tkirlashgan, tukli, sariq-kul rangda, 1000 ta urug‘ vazni 2,5-4,0 grammgacha bo‘lib, unuvchanligi 4-6 yilgacha saqlaydi. Pomidor issiqsevar o‘simlikdir. Uning normal o‘sib rivojlanishi uchun harorat 20-25 °C, havoning nisbiy namligi 40-65 % bo‘lishi maqbul hisoblanadi. Harorat 15 °C dan pasayganda o‘sishi sustlashadi, 0-1 °C da esa umuman o‘sishdan to‘xtaydi, -1--2 °C da o‘simligi nobud bo‘ladi. O‘ta yuqori harorat ham ($35^{\circ}\text{C} < t$) pomidor o‘simligining o‘sish va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shungdek pomidor yorug‘lik sevar o‘simlik bo‘lib, soya joyda yetishtirilganda poyasi nimjon va uzun bo‘lib o‘sadi, meva hosil qilmaydi.



Pomidor navlari

DO'STLIK NAVI

Ertapishar nav, o'sish davri – **95-100 kun.**

Tupi determinant tipida, shtambli, yaxshi barglagan, bargi kartoshka bargiga o'xshash.

Mevasi yumaloqsimon, qattiq, yuzasi silliq, to'q qizil, vazni **80-90 g.**

Hosildorligi – 40-45 t/ga.

Vaqtinchalik plyonka ostida va ochiq dalalarda ertaki hosil olish uchun mo'ljallangan. Qayerda yaratilgan: **O'zbekiston.** **2009-yil** Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

SURXON-142 NAVI

O'rtapishar nav, o'sish davri **110-115 kun.**

Tupi yarim determinant tipida, tikka o'sadi. Bargi kartoshka bargiga o'xshash. Mevasi yassi-yumaloqsimon va yumaloqsimon, vazni **120-140 g.** **Hosildorligi** 55- 60 t/ga. Iste'mol va qayta ishlash uchun yaroqli.

Qayerda yaratilgan: **O'zbekiston va Rossiya.**

1994-yil Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Buxoro, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

O'ZBEKISTON NAVI

O'rtapishar nav, o'sish davri **120-125 kun.**

Tupi determinant tipida, ixcham, serbang bo'lib, mevasi yumaloqsimon, o'rtacha, vazni **120-160 g**, yuzasi tekis yetiladi.

Hosildorligi 65-70 t/ga. Issiqqa chidamlı.

Qayerda yaratilgan: **O'zbekiston.**

1985-yil Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Qoraqalpog'iston respublikasi, Andijon va Buxoro viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.



NAMUNA-70 NAVI

Kechpishar nav, o'sish davri **110-115 kun.**

Tupi determinant tipida, o'rtacha shoxlaydi.

Mevasi yumaloqsimon, yuzasi tekis, qizil, vazni – **110-130 g.**

Hosildorligi 53-55 t/ga. Nematoda bilan zararlangan yerlarda ekish uchun tavsiya etilmaydi.

Qayerda yaratilgan: **O'zbekiston va Rossiya.**

1992-yil Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Surxondaryo viloyatida** ekish uchun tavsiya qilingan.

Xulosa: Pomidor hozirgi kunga kelib o‘zining qimmatli va dietik hususiyatlari sababli butun jahonda eng keng yetishtiriladigan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib pomidorning 1000 dan ortiq turlituman navlari yaratilgan bo‘lib, ular ochiq va himoyalangan maydonlarda (masalan issiqxonalarda) yetishtirilmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoda taxminan 4,4 million hektar (2009-yil) maydonda ekilib, 153 million tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Asosiy pomidor yetishtiruvchi davlatlar Xitoy (45,4 million tonna), AQSh (14,14 million tonna), Hindiston (11,15 million tonna), Turkiya (10,7 million tonna), Misr (10,0 million tonna) hisoblanadi. O‘zbekistonda asosiy sabzavot ekinlaridan biri hisoblanib, sabzavot ekinlar umumiyligi maydonining 40-45 % ini pomidor tashkil qiladi. 2010-yilda O‘zbekistonda pomidor 75000 hektar maydonda yetishtirilgan. Yalpi hosilning 70 % qayta ishlanadi, 10-15 % mahalliy bozorda realizatsiya qilinsa, 15-20 % eksport qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Khaitovna PM, Faksriddinovich MS Technology of growing cauliflower // Texas Journal of Interdisciplinary Research. - 2022. - T. 6. - S. 8-10.
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Buztwd0AAAAJ&authuser=1&citation_for_view=Buztwd0AAAAJ:u-x6o8ySG0sC
 - https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Buztwd0AAAAJ&authuser=1&citation_for_view=Buztwd0AAAAJ:2osOgNQ5qMEC
 - https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Buztwd0AAAAJ&authuser=1&citation_for_view=Buztwd0AAAAJ:qjMakFHDy7sC
 - <https://doi.org/10.5281/zenodo.7115076>
 - <https://doi.org/10.5281/zenodo.7131539>
- Xayitovna, P. M., & Faxriddinovich, M. S. (2022). Types of corn grown in Uzbekistan and their peculiarities. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 3, 59-63.
- Xayitovna, P. M., & Faxriddinovich, M. S. (2022). Cauliflower Growing Technology. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 6, 8-10.

- Abdullayev, M., & Mamarajabov, S. (2022). VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 100-104.
- Khayitovna, P. M., & Faxriddinovich, M. S. (2022). PECULIARITIES OF GROWING CAULIFLOWER. *Science and innovation*, 1(D3), 144-146.
- Константинович, А. В., & Маслов, В. А. (2012). Выращивайте рассаду цветной капусты правильно. *Картофель и овощи*, (2), 25-26
- Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.11 (2022): 100-104.
- Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
- Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.
- Abdukarimovna, Abdukarimova Mamlakat, Kulmurotova Aziza Muhiddinovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "TOMATO PESTS." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.2 (2023): 427-430.
- Xayitovna, Pirimqulova Muhabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Types of corn grown in Uzbekistan and their peculiarities." *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences* 3 (2022): 59-63.